



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No7
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 43 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

METHODS USED IN BUSINESS DECISION-MAKING	10
Ochildiev Bekhruz To'liqin o'g'li, Safarov Alisher	
YASHIRIN IQTISODIYOTNING AMALIY TAHLILI O'ZBEKISTON MIQYOSIDA VA UNING XUFYONA JIHATI	15
Yuldasheva Nargiza Rashidovna, Koshanov Abdimurat Azat uli	
BIZNESDA VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR DAVRIDA KASBIY KOMMUNIKATSIYALAR	20
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Normamatova Sitora Nozim qizi, Umida Yuldasheva Anasaliyevna	
ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ МОДЕЛИРОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИЕ ПО БУХГАЛТЕРСКОМУ УЧЁТУ: ПОВЫШЕНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ	25
Муратова Наргиза Тахировна	
MIGRATSIYA JARAYONLARI VA IQTISODIY TENGSIZLIK O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR XUSUSIYATLARI	30
E.T. Samadova, M.Sh.Raximova	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA MENEJMENTNING YANGI YONDASHUVLARI	36
Shoydulova Maftuna Zafar qizi, Meliyeva Nargiza Eshboyevna	



O'ZBEKISTON KORXONALARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA MENEJMENTNING YANGI YONDASHUVLARI

Shoydulova Maftuna Zafar qizi

Denov tadbirkorlik va Pedagogika instituti 4-bosqich talabasi

Email: iqtisod2005@gmail.com

Ilmiy rahbar:

Meliyeva Nargiza Eshboyevna

Denov Tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: meliyevanargiza906@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonining menejment tizimlariga ta'siri tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi natijasida boshqaruvning yangi yondashuvlari, jumladan, avtomatlashtirilgan tizimlar, sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilish va masofaviy boshqaruv imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, mamlakatimiz sharoitida raqamli transformatsiyaning afzalliklari hamda mavjud muammolar ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli transformatsiya, menejment, O'zbekiston korxonalari, innovatsion yondashuvlar, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish, sun'iy intellekt, Big Data, masofaviy boshqaruv, strategik menejment.

Abstract: This article analyzes the impact of the digital transformation process on the management systems of enterprises in Uzbekistan. The introduction of digital technologies has led to new management approaches, including automated systems, artificial intelligence-based decision-making, and remote management opportunities. The advantages and existing challenges of digital transformation in the context of our country are also examined.

Key words: digital transformation, management, enterprises of Uzbekistan, innovative approaches, digital technologies, automation, artificial intelligence, Big Data, remote management, strategic management.

Аннотация: В данной статье проанализировано влияние процесса цифровой трансформации на системы менеджмента предприятий Узбекистана. Внедрение цифровых технологий способствует появлению новых подходов к управлению, включая автоматизированные системы, принятие решений на основе искусственного интеллекта и возможности дистанционного управления. Также рассмотрены преимущества и существующие проблемы цифровой трансформации в условиях нашей страны.

Ключевые слова: цифровая трансформация, менеджмент, предприятия Узбекистана, инновационные подходы, цифровые технологии, автоматизация, искусственный интеллект, большие данные, дистанционное управление, стратегический менеджмент.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida raqamli transformatsiya jarayonlari jadallik bilan rivojlanib bormoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) sohasi iqtisodiyotning eng tez sur'atlarda o'sayotgan tarmoqlaridan biriga aylandi. Jumladan, IT-xizmatlar eksporti qariyb 900 million dollarga yetgani, barcha hududlarda IT-parklar faoliyatining kengaygani hamda davlat xizmatlarining elektron shaklda ko'rsatilishi hajmi ortgani ushbu yo'nalishning ustuvorligidan dalolat beradi. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan vazifalar ham raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va korxonalarda boshqaruv jarayonlarini yangilashni muhim ustuvorlik sifatida belgilab bermoqda.

Raqamli transformatsiya jarayoni sharoitida menejment tizimlari tubdan o'zgarib, korxonalarda boshqaruvning yangi mexanizmlari shakllanmoqda. Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilish mexanizmlari va masofaviy boshqaruv imkoniyatlari korxonalarining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.



Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, bugungi globallashuv va raqobat sharoitida O'zbekiston korxonalarining barqaror rivojlanishi, ichki va tashqi bozorda muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi bevosita raqamli transformatsiya imkoniyatlaridan qay darajada samarali foydalanilishiga bog'liq. Xodimlarni boshqarish tizimida zamonaviy texnologiyalarni keng qo'llash, ularga moslashuvchan strategiyalarni ishlab chiqish va yangicha yondashuvlarni joriy etish korxonalar samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan ushbu maqolaning asosiy maqsadi — O'zbekiston korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonining menejment tizimlariga, xususan, xodimlarni boshqarishga ta'sirini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Maqolada belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshiriladi: 2024-yilga oid rasmiy statistik ma'lumotlar asosida O'zbekiston korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonining umumiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish, menejment tizimlarida raqamli texnologiyalar joriy etilishining o'ziga xos jihatlari ochib berish, xodimlarni boshqarishda raqamli transformatsiya jarayonida uchrayotgan asosiy muammolarni aniqlash va ularning sabablari yuzasidan ilmiy xulosalar berish, xorijiy hamda mahalliy tajribani taqqoslab samarali boshqaruv mexanizmlarini taklif etish va O'zbekiston korxonalari uchun mos bo'lgan zamonaviy menejment strategiyalarini ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston olimlari va mutaxassislari raqamli transformatsiya jarayonining iqtisodiyot hamda menejment tizimlariga ta'sirini dolzarb masala sifatida baholab kelmoqdalar. Jumladan, iqtisodiyot fanlari doktori A. Vahobov va hamkorlari o'z tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalar boshqaruv tizimini modernizatsiya qilish, resurslardan samarali foydalanish hamda boshqaruvning shaffofligini ta'minlash muhimligini ta'kidlaydilar. N. Jo'rayev esa raqamli texnologiyalarni joriy etishda korxonalarda kadrlar salohiyati va ularning raqamli savodxonligini oshirish masalasi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini qayd etadi. Iqtisodiyot va menejment yo'nalishidagi bir qator mahalliy monografiyalar hamda ilmiy maqolalarda (masalan, "Raqamli iqtisodiyot va innovatsion rivojlanish" to'plamida) raqamli transformatsiyaning ijobiy jihatlari bilan bir qatorda, mavjud infratuzilma muammolari, boshqaruvda axborot xavfsizligini ta'minlash va xodimlarning yangi sharoitlarga moslashuvi masalalari keng muhokama qilingan.

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham ushbu mavzu keng yoritilgan. Xususan, P. Drucker va M. Porter kabi menejment sohasining mashhur vakillari o'z asarlarida texnologik o'zgarishlarning boshqaruv tizimiga bevosita ta'siri, raqamli transformatsiya jarayonida innovatsion strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini asoslab berganlar. So'nggi yillarda G. Westerman, A. McAfee va E. Brynjolfsson tomonidan yozilgan "Leading Digital: Turning Technology into Business Transformation" nomli asar korxonalar faoliyatida raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish bo'yicha fundamental manbalardan biri sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan tadqiqotlarda raqamli transformatsiya jarayonida xodimlarni boshqarishning zamonaviy usullari, masofaviy ishni tashkil etish, "talent management" konsepsiyasi hamda sun'iy intellekt asosida qaror qabul qilish mexanizmlarining samaradorligi keng tahlil qilingan.

Umuman olganda, mahalliy va xorijiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonida menejment tizimlari tubdan yangilanmoqda. O'zbekiston olimlari ko'proq amaliy jihatlariga, ya'ni infratuzilma, kadrlar salohiyati va iqtisodiy samaradorlikka e'tibor qaratayotgan bo'lsalar, xorijiy mualliflar strategik boshqaruv, global raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlarning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilmoqdalar.

TADQIQOT METADALOGIYASI

Mavzuni ilmiy o'rganish, statistik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar hamda ilmiy maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda raqamli transformatsiya bosqichma-bosqich izchil tarzda rivojlanmoqda. Korxonalar menejment tizimida kuzatilayotgan ayrim cheklovlar esa bu jarayonni yanada takomillashtirish imkoniyatlarini ochib bermoqda. Jumladan, xodimlarning raqamli savodxonligini oshirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish va innovatsion boshqaruv yondashuvlarini keng joriy etish orqali korxonalarda samaradorlik va raqobatbardoshlikni sezilarli darajada oshirish mumkin. Davlat statistika qo'mitasi hamda mustaqil tahlil markazlari ma'lumotlariga ko'ra, raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish darajasi yil sayin ortib bermoqda, bu esa inson resurslarini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirishda muhim o'sish sur'atlarini ko'rsatmoqda (1-jadval).



1-jadval. O'zbekistonda raqamli transformatsiyani takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari

Yo'nalish	Amaldagi holat	Rivojlantirish istiqbollari
Raqamli savodxonlik	Xodimlarning qariyb 40% texnologiyadan cheklangan foydalanadi	Doimiy o'quv va qayta tayyorlash dasturlarini kengaytirish orqali raqamli kompetensiyalarni oshirish
Infratuzilma rivoji	Qishloq hududlarda internet sifati past	Barqaror tarmoq infratuzilmasi yaratish va keng polosali internet qamrovini kengaytirish
IT-mutaxassislar tayyorlash	Malakali kadrlar yetishmaydi	IT-ta'limni davlat va xususiy sektor hamkorligida modernizatsiya qilish
Huquqiy baza	Ma'lumot xavfsizligi tartibga solinishi zarur	Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tizimini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish
Moliyaviy qo'llab-quvvatlash	KOB va startaplar imkoniyati cheklangan	Imtiyozli grantlar, kreditlar va subsidiyalar orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirish

Hududlar kesimida infratuzilma imkoniyatlarining tabaqalanishi ham yangi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab bermoqda. Masalan, qishloq joylarda internet tezligini oshirish va barqaror tarmoq infratuzilmasini yaratish raqamli boshqaruv tizimlarining keng joriy etilishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes subyektlarini raqamli yechimlar bilan ta'minlash, ularga dastlabki moliyaviy va texnik yordam mexanizmlarini kengaytirish raqamli iqtisodiyotning poydevorini mustahkamlaydi.

Kadrlar siyosatida esa ilg'or IT-mutaxassislar tayyorlash, ularning ilmiy ishlanmalarini ishlab chiqarish jarayoniga integratsiya qilish, hamda xodimlarning yangi texnologiyalarga moslashuvchanligini rag'batlantiruvchi dasturlarni joriy etish orqali menejment tizimini innovatsion asosda qayta shakllantirish mumkin. Tashkiliy jihatdan rahbarlar orasida raqamli madaniyatni oshirish, o'zgarishlarni strategik imkoniyat sifatida qabul qilish madaniyatini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Huquqiy sohada esa ma'lumot xavfsizligi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va axborot texnologiyalarini tartibga solish bo'yicha normativ-huquqiy bazaning izchil takomillashtirilishi raqamli boshqaruv tizimlariga ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Umuman olganda, O'zbekiston korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonlari kengayib borayotgani bilan birga, menejment tizimini kompleks modernizatsiya qilish orqali bu jarayonni tezlashtirish imkoniyatlari mavjud. Kadrlar tayyorlash, infratuzilmani rivojlantirish, huquqiy tartibotlarni kuchaytirish hamda davlat-xususiy sektor hamkorligini kengaytirish kelgusi yillarda raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan asosiy omillardan biri bo'ladi.

Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, Estoniya, Singapur va ayrim G'arbiy Yevropa davlatlari raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirishda ilg'or natijalarga erishgan. Masalan, Estoniya elektron identifikatsiya tizimi va davlat xizmatlarini onlayn platformalar orqali boshqarishni keng joriy etgan bo'lsa, Singapurda xodimlarni qayta tayyorlash dasturlari asosida sun'iy intellekt va avtomatlashtirish yo'nalishida malaka oshirish markazlari samarali faoliyat yuritmoqda. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa 16–24 yoshdagi yoshlarning 80 foizi bazaviy yoki undan yuqori darajadagi raqamli ko'nikmalarga ega ekani qayd etilgan.

Quyidagi jadvalda ayrim davlatlarning ilg'or tajribalari aks ettirilgan (2-jadval).

2-jadval. Xorij tajribasi taqqoslamasi

Davlat	Raqamli transformatsiya yondashuvi	Xodimlarni boshqarishdagi xususiyatlar	Statistik ma'lumotlar	Natijalarda erishilgan o'sish / natijalar
Estoniya	e-ID, blokcheyn asosida davlat xizmatlari	Davlat-xususiy hamkorlikda raqamli savodxonlik dasturlari	Bazaviy raqamli ko'nikmalarga ega aholi ulushi 62.6 % (2024)	Avvalgi yilga nisbatan ≈ 5.4 % oshgan; davlat xizmatlari tezlashgan, ma'muriy xarajatlar kamaygan
Singapur	Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish markazlari	Kadrlar uchun majburiy raqamli treninglar	Raqamli iqtisodiyotning YalMdagi ulushi 17.7 % (2023)	2018–2023 yillarda CAGR ≈ 11.2 %; Kichik biznesda texnologiya qabul qilish 74 % $\rightarrow$ 94 % (+20 punkt)
Yevropa Ittifoqi (EU-27)	Raqamli ko'nikmalarni oshirish strategiyalari	Yoshlarning ~ 80 % bazaviy raqamli ko'nikmalarga ega bo'lish maqsadi	Bazaviy raqamli ko'nikmalarga ega aholi ≈ 56 % (2023)	Raqamli tengsizlik qisqarib bormoqda; yoshlar orasida ko'nikmalar yuqori (ba'zi davlatlarda 90 %+ ga yetgan)



Davlat	Raqamli transformatsiya yondashuvi	Xodimlarni boshqarishdagi xususiyatlar	Statistik ma'lumotlar	Natijalarda erishilgan o'sish / natijalar
Janubiy Koreya	Raqamli hukumat (e-government), ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv	Davlat xodimlari uchun onlayn xizmatlar va treninglar	E-government xizmatlari qamrovi $\approx 90.6\%$ (2023)	OECD indeksida raqamli hukumat bo'yicha eng yuqori o'rinlardan biri; fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanishi sezilarli oshgan
Avstraliya	Raqamli ishchi kuchini rivojlantirish, qayta tayyorlash	Raqamli kasb tayyorlash va reskilling dasturlari	6.5 mln ishchi qayta o'qitilishi kerakligi aniqlangan	Yangi trening dasturlari ishga tushirilgan; xodimlarning digital malakalari kengaymoqda; raqamli iqtisodga moslashuv tezlashgan
Kanada	IT xodimlari uchun majburiy trening fondi	Professional rivojlanish dasturlari	20,000 dan ortiq IT xodimlarini qamrab olish uchun \$4.7 mln fond ajratilgan (2024)	IT sohasidagi davlat xizmatchilari malakasi oshdi; davlat xizmatlari raqamli loyihalarni tezroq amalga oshirmoqda
Niderlandiya	Raqamli ko'nikmalar kampaniyalari	Aholi uchun raqamli savodxonlik kurslari	Bazaviy raqamli ko'nikmalarga ega aholi $\approx 82.7\%$ (2023)	EUda yetakchi o'rinlardan biri; aholining katta qismi davlat xizmatlarini onlayn foydalana oladi
Finlyandiya	Ta'lim tizimida raqamli ko'nikmalar	Yoshlarni erta raqamli tayyorlash	Bazaviy raqamli ko'nikmalarga ega aholi $\approx 82\%$ (2023)	Ta'lim tizimi orqali yoshlar erta bosqichdan raqamli savodli; innovatsion xizmatlar kengaygan
Germaniya	Raqamli savodxonlik strategiyalari	Davlat va xususiy sektor xodimlari uchun kurslar	Internet va raqamli xizmatlardan foydalanish yuqori	Davlat xizmatlari shaffoflashdi; fuqarolar onlayn platformalardan faol foydalanmoqda
Buyuk Britaniya	Raqamli hukumat strategiyalari	Xodimlar uchun trening va qo'llab-quvvatlash	Raqamli xizmatlardan foydalanish keng tarqalgan	Elektron hukumat platformalari kengaygan; ish joylarida raqamli ko'nikmalar talabi oshgan
AQSh	Davlat-xususiy hamkorlik va raqamli infratuzilma	Shtatlar va federal hukumat xodimlari uchun treninglar	Internet qamrovi yuqori, digital divides past	Innovatsiyalar va startaplar rivojlandi; pandemiya davrida raqamli xizmatlarga talab keskin oshgan

Ushbu tajribalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida Estoniya va Skandinaviya mamlakatlari modelini moslashtirish eng maqbul yo'l bo'lishi mumkin. Chunki ushbu davlatlar tajribasi davlat va xususiy sektor o'rtasidagi samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish, elektron boshqaruv tizimlarini keng joriy etish hamda xodimlarni uzluksiz o'qitish orqali transformatsiya jarayonini tezlashtirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi (3-jadval).

3-jadval. O'zbekiston uchun prognoz (2025–2030)¹

Ko'rsatkichlar	Hozirgi holat (2024)	2027-yil prognozi	2030-yil prognozi
Xodimlarning raqamli ko'nikmalari (%)	60%	75%	90%
Samaradorlik o'sishi (%)	—	15%	25%
Yangi ish o'rinlari (ming)	—	200	430
SME raqobatbardoshligi	Past	O'rta	Yuqori
Davlat xizmatlari shaffofligi	O'rta	Yuqori	Juda yuqori

Prognoz natijalariga ko'ra, agar O'zbekiston ushbu tajribalarni samarali moslashtirsa, 2025–2030-yillar davomida bir qator ijobiy ko'rsatkichlarga erishish mumkin. Jumladan, xodimlarning samaradorligi 20–25 foizga oshadi, raqamli texnologiyalar asosida 400 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratiladi, kichik va o'rta biznes

1 Muallif ishlanmasi.



subyektlarining raqobatbardoshligi sezilarli darajada kuchayadi, davlat xizmatlarining shaffofligi va tezkorligi oshib, fuqarolarga ko'rsatiladigan xizmatlar sifati yuqori bosqichga ko'tariladi.

Shunday qilib, O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonida mavjud muammolarning bartaraf etilishi xorijiy ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashganda, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, xodimlar samaradorligining oshishi hamda xalqaro maydonda raqobatbardoshlikning kuchayishi kutiladi. Yuqorida keltirilgan prognozlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston korxonalarida raqamli transformatsiyani to'g'ri yo'lga qo'yish nafaqat boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki butun iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Xususan, mehnat unumdorligi, bandlik, investitsiyalar hajmi, ekologik barqarorlik va eksport salohiyati kabi asosiy yo'nalishlarda sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berishi mumkin.

O'zbekiston korxonalarida raqamli transformatsiya nafaqat menejment jarayonlarini takomillashtirish, balki butun iqtisodiy tizimning barqaror rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va eksport salohiyatini rivojlantirish imkonini beradi. Quyidagi jadvalda raqamli transformatsiyaning barqaror iqtisodiyotga ko'rsatadigan ta'siri hamda kutilayotgan natijalar umumlashtirilgan holda yoritilgan (4-jadval).

4-jadval. O'zbekistonda raqamli transformatsiyaning barqaror iqtisodiyotga ta'siri²

Yo'nalish	Raqamli transformatsiya ta'siri	Kutilayotgan natija
Mehnat unumdorligi	Avtomatlashtirish va AI asosida oshadi	YIM o'sishi 3–4% ga tezlashadi
Bandlik	Yangi ish o'rinlari yaratiladi	Yoshlar ishsizligi kamayadi
Investitsiyalar	Innovatsion loyihalarga jalb kuchayadi	Xorijiy sarmoya oqimi ortadi
Ekologiya	"Yashil" texnologiyalar joriy qilinadi	Barqaror rivojlanish ta'minlanadi
Eksport salohiyati	IT xizmatlari eksporti oshadi	Raqobatbardoshlik kuchayadi

Jadvalda keltirilganidek, raqamli transformatsiyaning ta'siri ko'p qirrali bo'lib, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi. Avtomatlashtirish mehnat unumdorligini oshiradi, bu esa yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlarini tezlashtiradi. Shu bilan birga, yangi raqamli sohalarning paydo bo'lishi bandlik darajasini oshirib, yoshlar ishsizligini kamaytiradi. Innovatsion loyihalarga xorijiy sarmoya oqimini ko'paytirish orqali iqtisodiy faoliyatning diversifikatsiyasi ta'minlanadi. "Yashil" texnologiyalar ekologik barqarorlikni mustahkamlab, barqaror rivojlanishga hissa qo'shadi. Nihoyat, IT-xizmatlar eksportining ortishi O'zbekistonning jahon bozorida raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Demak, raqamli transformatsiya iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, mamlakatning barqaror iqtisodiy modelini shakllantirishda strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston korxonalarida raqamli transformatsiya jarayoni mamlakat iqtisodiyotida tub o'zgarishlarga sabab bo'layotgani kuzatilmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, ishsizlik darajasining 6,8 foizdan 5,8 foizga pasaygani (Qalampir.uz, 2024) mamlakatda amalga oshirilayotgan raqamli iqtisodiyotga oid islohotlarning bandlik bozoriga ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, IT-xizmatlar eksportchilari sonining 2024-yilning to'qqiz oyida 70 foizga oshgani va O'zbekistonning 78 ta davlatga raqamli xizmat ko'rsata boshlagani (Kun.uz, 2024) mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini mustahkamlashda raqamli transformatsiyaning muhim omilga aylanganidan dalolat beradi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiyaning barqaror iqtisodiyotga ta'siri ko'p qirrali bo'lib, u mehnat unumdorligini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, ekologik barqarorlikni ta'minlash va IT-xizmatlari eksportini kengaytirishga xizmat qiladi. Bularning barchasi mamlakat yalpi ichki mahsuloti o'sishini tezlashtirish hamda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash imkonini beradi.

Shu boisdan, raqamli transformatsiyani yanada jadallashtirish uchun bir qator ustuvor yo'nalishlar belgilanishi lozim. Avvalo, kadrlar malakasini oshirish va raqamli savodxonlikni kengaytirish zarur. Bu borada xodimlar uchun muntazam treninglar tashkil etish, xalqaro sertifikatlash tizimlarini joriy etish va oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy IT-yo'nalishlarni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, infratuzilmani mustahkamlash, xususan, yuqori tezlikdagi internetni mamlakatning barcha hududlariga yetkazish va korxonalarda zamonaviy texnologik uskunalarni joriy etish transformatsiyaning uzluksizligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, huquqiy bazani takomillashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish talab etiladi. Bu yo'nalishda ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, soliqlar va bojxona imtiyozlarini kengaytirish kabi chora-tadbirlar muhim o'rin tutadi.

2 Muallif ishlanmasi.



Prognozlarga ko'ra, ushbu chora-tadbirlarning samarali amalga oshirilishi natijasida 2025–2028-yillar oralig'ida mamlakatda ishsizlik darajasi yana 1–2 foizga kamayib, taxminan 4–5 foiz atrofida barqarorlashishi mumkin. Shu bilan birga, yalpi ichki mahsulot o'sish sur'atlari qo'shimcha 3–4 foizga tezlashadi, xizmatlar eksportida IT-sektor ulushi sezilarli darajada ortadi va "yashil" texnologiyalar joriy etilishi ekologik barqarorlikni mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda raqamli transformatsiya jarayonlari menejment tizimlarini modernizatsiya qilish bilan bir qatorda, barqaror iqtisodiyot modelini shakllantirishga bevosita xizmat qilmoqda. Shu bois, ilmiy asoslangan va xalqaro tajribaga moslashtirilgan kompleks strategiyalarni ishlab chiqish hamda ularni izchil amalga oshirish kelgusida mamlakatni mintaqadagi raqamli iqtisodiyot markazlaridan biriga aylantirish imkonini beradi (5-jadval).

5-jadval. O'zbekistonda raqamli transformatsiya hozirgi holat va xorijiy tajriba asosidagi yechimlar³

Muammo turi	Qaysi davlat/tajribadan foydalanish	O'zbekistondagi hozirgi holat (manba)	Tajribani joriy etsak — necha yilda va qanday natija kutiladi (taxmin)
Raqamli savodxonlik yetishmasligi	Estoniya / Finlyandiya — keng qamrovli raqamli savodxonlik va davlat-xususiy trening dasturlari; ta'lim tizimiga integratsiya.	OECD va mahalliy manbalar O'zbekiston firmalari va aholisida raqamli ko'nikmalarni oshirish zarurligini qayd etadi (Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan). Davlatning "Digital Uzbekistan 2030" strategiyasi mavjud.	3–5 yil ichida: maktab-va kasb-tayyorlov dasturlari, hamda davlat-xususiy treninglar orqali yaqinda raqamli savodxonlik darajasini 20–35% punktga oshirish mumkin. (Estoniya/Finlyandiya kabi tizimli dasturlar 5–10 yilda yuqori natija beradi; boshlang'ich yutuq 3–5 yilda ko'zga tashlanadi).
Infratuzilma tafovutlari (qishloq-shahar)	Janubiy Koreya / Xitoy — keng qamrovli mobil/5G va optika infratuzilmasini tez joriy qilish hamda mahalliy simsiz yechimlar.	Hukumat 2024–2025da my.gov.uz integratsiyalari, 700 dan ortiq onlayn xizmatlar va qishloqlarga internet yetkazishni rejalashtirmoqda; World Bank va davlat loyihalari infratuzilmani qo'llab-quvvatlamogda.	2–6 yil ichida: maqsadli investitsiyalar va operatorlar bilan hamkorlik orqali qishloq hududlarida keng polosali internet qamrovini sezilarli oshirish (masalan, qamrovni 60→85% yoki sifatni sezilarli yaxshilash). (Janubiy Koreya kabi tez qamrov 5 yil va undan kamda amalga oshgan tajribalar mavjud).
IT mutaxassislari tanqisligi	Hindiston / Singapur — katta miqyosda IT ta'lim va skilling (bootcamp, onlayn kurslar), davlat-xususiy yollash va sertifikatlash dasturlari.	O'zbekistonda IT va AI strategiyalari (AI 2030 strategiyasi), hamda World Bank hamda donorlar yordamida malaka oshirish loyihalari bor. Ammo bozor uchun kerakli mutaxassislar yetishmaydi.	2–4 yil ichida: maqsadli skilling va reskilling dasturlari orqali IT mutaxassislari sonini 30–50% ga oshirish mumkin (boshlang'ich sezilarli effekt 2 yilda; to'liq ta'sir 4–6 yil). (Singapur va Hindiston tez skilling-modeli samarali).
Huquqiy baza va ma'lumot xavfsizligi sustligi	Yevropa Ittifoqi (GDPR) & Singapur kiberxavfsizlik model) — ma'lumotlarni himoya qilish, tartibga solish, standartlar va nazorat mexanizmlari.	IREX va mahalliy hisobotlar kiberxavfsizlik va axborot xabardorligi uchun talablarga e'tibor zarurligini ko'rsatadi; hukumat Cybersecurity Center kampaniyalarini boshlagan.	1–3 yil ichida: qonun va tartibotlarni yangilash, ma'lumotni himoya qilish standartlarini joriy etish va xodimlarni o'qitish orqali ishonchni sezilarli oshirish (masalan, onlayn firibgarlik bilan bog'liq moliyaviy yo'qotishlarni pasaytirishga yordam beradi). To'liq tartibga solish va madaniyat o'zgarishi 3–5 yil oladi.
Moliyaviy qo'llab-quvvatlash yetishmasligi (SME)	Kanada / EBRD-chora-modelo / Gruziya bank-platformalari (masalan, TBC tajribasi) — SME uchun raqamli kreditlash, mikrokredit va onlayn SME-platformalar.	Xalqaro banklar va mahalliy banklar (masalan, TBC, SQB) orqali SME uchun raqamli kreditlash va EBRD kabi tashkilotlardan imkoniyatlar paydo bo'lmoqda. World Bank va EBRD loyihalari mavjud.	1–3 yil ichida: raqamli SME-lending va grantlar orqali kichik va o'rta korxonalarning raqamli investitsiyalarga kirish imkoniyati sezilarli oshadi ; natijada SMElar orasida raqamiylashtirilgan korxonalar soni va raqamli savdo hajmi 20–40% ga o'sishi mumkin (amalga oshirilgan kredit va qo'llab-quvvatlash dasturlariga bog'liq).

3 Manba: muallif tomonidan Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD), Jahon banki, IREX, Yevropa Komissiyasi hamda O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi ochiq ma'lumotlari asosida tayyorlandi.



O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiyani jadallashtirish, menejment tizimlarini modernizatsiya qilish hamda hududiy va tarmoqlararo nomutanosibliklarni kamaytirish maqsadida quyidagi takliflar ilgari suriladi.

Birinchidan, hududlarda raqamli klasterlar tashkil etish zarur. Toshkent shahri bilan cheklanib qolmasdan, Samarqand, Farg'ona va Buxoro kabi viloyatlarda IT-klasterlar yaratish, ularni infratuzilma, kadrlar tayyorlash va soliqliq imtiyozlari bilan qo'llab-quvvatlash raqamli iqtisodiyotning mintaqaviy integratsiyasini kuchaytiradi.

Ikkinchidan, kichik va o'rta biznes (KOB) subyektlari uchun davlat subsidiyalarini kengaytirish muhim. Korxonalarning dastlabki raqamli transformatsiya xarajatlarini (ERP, CRM tizimlari, onlayn savdo platformalari) kamaytirish maqsadida grantlar va imtiyozli kreditlar ajratish KOB sektorining raqobatbardoshligini oshiradi.

Uchinchidan, O'zbekiston IT Parkini xalqaro innovatsiya markaziga aylantirish lozim. Bu nafaqat startaplarni qo'llab-quvvatlash, balki xorijiy kompaniyalarni jalb etish orqali mamlakatni "outsourcing hub" sifatida rivojlantirish imkonini beradi.

To'rtinchidan, kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish dasturlarini joriy etish zarur. Ishsiz yoshlar va xorijdan qaytgan fuqarolar uchun qisqa muddatli "Digital Skills" dasturlarini amalga oshirish mehnat bozoridagi nomutanosiblikni kamaytirib, raqamli sohalarga yangi ishchi kuchini jalb qiladi.

Beshinchidan, qishloq xo'jaligida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish muhim. "Raqamli dehqonchilik" konsepsiyasi doirasida sun'iy intellekt va IoT texnologiyalari asosida suv, o'g'it va energiya sarfini optimallashtirish orqali mahsuldorlikni oshirish mumkin.

Oldinchidan, davlat boshqaruvida to'liq elektron tizimga o'tish talab etiladi. E-hukumat xizmatlarini 100 foiz raqamlashtirish, qog'oz hujjat aylanishini tugatish va barcha davlat xizmatlarini yagona elektron platformaga birlashtirish davlat boshqaruvi samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Yettinchidan, texnoparklar va universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish lozim. Oliy ta'lim muassasalari bilan ishlab chiqarish korxonalari o'rtasida IT-sohasida qo'shma ilmiy-amaliy loyihalarni yo'lga qo'yish innovatsion muhitni yanada rivojlantiradi.

Sakkizinchidan, milliy kiberxavfsizlik strategiyasini mustahkamlash zarur. Davlat va xususiy sektor korxonalarida kiberhujumlarga qarshi yagona himoya tizimini shakllantirish, milliy CERT (Computer Emergency Response Team) faoliyatini kengaytirish axborot makonining xavfsizligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 464 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi PF-6079-son Farmoni. – Toshkent, 2020.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlari – 2024 yil. – Toshkent: Davstatqo'm, 2025. – 245 b.
4. Karimov I.A. Yuqori ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
5. Xodiev B.Yu., Ahmedov B.R. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021. – 352 b.
6. Abduraxmonov Q.X. Raqamli iqtisodiyot: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022. – 280 b.
7. OECD. Digital Economy Outlook 2023. – Paris: OECD Publishing, 2023.
8. World Bank. Uzbekistan Digital Transformation Report. – Washington, DC: World Bank, 2022.
9. Schwab K. The Fourth Industrial Revolution. – Geneva: World Economic Forum, 2016. – 184 p.
10. Tapscott D. Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin is Changing Money, Business, and the World. – New York: Penguin, 2018. – 368 p.
11. UNCTAD. Digital Economy Report 2021. – New York and Geneva: United Nations, 2021.
12. Brynjolfsson E., McAfee A. The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies. – New York: W.W. Norton & Company, 2014. – 306 p.
13. Porter M., Heppelmann J. How Smart, Connected Products Are Transforming Competition. – Harvard Business Review, 2014. – Vol. 92(11), pp. 64–88.
14. Deloitte. Digital Transformation 2025: Future of Business in Emerging Markets. – London: Deloitte Insights, 2023.
15. Digital Skills Jobs EU. Estonia Snapshot: Digital Skills. – 2024. – URL: <https://digital-skills-jobs.europa.eu/en/latest/briefs/estonia-snapshot-digital-skills> (murojaat sanasi: 27.09.2025).
16. U.S. Department of Commerce. Singapore Digital Economy Overview. – Washington, 2024. – URL: <https://www.trade.gov/country-commercial-guides/singapore-digital-economy> (murojaat sanasi: 27.09.2025).
17. Government of Canada. Canada's Artificial Intelligence Strategy. – Ottawa, 2023. – URL: <https://ised-isde.canada.ca> (murojaat sanasi: 27.09.2025).
18. Australian Government. Digital Economy Strategy 2030. – Canberra, 2022. – URL: <https://digitaleconomy.pmc.gov.au> (murojaat sanasi: 27.09.2025).
19. U.S. Department of Commerce. Digital Economy Indicators for the United States. – Washington, 2022. – URL: <https://www.commerce.gov> (murojaat sanasi: 27.09.2025).
20. China Academy of Information and Communications Technology (CAICT). China Digital Economy Report. – Beijing, 2023. – 180 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

7-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
